

ALISHER NAVOIY G'AZALI "XANUZ" ASHULASI

Andijon davlat pedagogika insituti "Ijtimoiy
gumanitar fanlar va san'at" fakulteti
"Musiqqa ta'lim yo'nalishi 1-bosqich
102-guruh talabasi **Tursunova Mehriniso**

Yorqinbekqizi

Annotatsiya: Alisher Navoiy ning "Xanuz" asari tasavvufiy g'oyalarga boy bo'lib, insonning ruhiy izlanishlari va ma'naviy yuksalishi haqida chuqur fikrlarni o'z ichiga oladi. Maqolada, Navoiy o'zining she'riyatida insonning ichki dunyosini, uning dunyoqarashini va axloqiy qadriyatlarini o'rganadi. "Xanuz" asarida shoir, hayot va o'lim, muhabbat va ma'naviyat, ilohiy haqiqatlarga intilish kabi mavzularni o'ziga xos tarzda yoritadi. Ushbu asar, Navoiy adabiyotining falsafiy yo'nalishini o'rganishga qiziquvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Maqolada kelajak avlodni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, muhim ma'no mazmun kasb etishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: g'azal, she'riyat, shoir, maqom, san'at, falsafiy, ansambl, tarixiy, madaniy, asar, me'ros.

Аннотация: Произведение Алишера Навои "Хануз" богато мистическими идеями и содержит глубокие мысли о духовном поиске и духовном росте человека. В статье Навои в своей поэзии исследует внутренний мир человека, его мировоззрение и нравственные ценности. В своем произведении "Хануз" поэт освещает такие темы, как жизнь и смерть, любовь и духовность, по-своему стремясь к божественным истинам. Данная работа является важным источником для тех, кто интересуется изучением философского направления литературы Навои. В статье изучается, что у будущего поколения возрастет интерес к музыке и обретет важный смысл.

Ключевые слова: газель, поэзия, поэт, статус, искусство, философский, ансамблевый, исторический, культурный, творчество, наследие.

Annotation: Alisher Navoi's work "Khanuz" is rich in mystical ideas and contains deep thoughts about the spiritual quest and spiritual growth of man. In the article, Navoi explores the inner world of man, his worldview and moral values in his poetry. In the work "Khanuz" the poet covers such topics as life and death, love and spirituality, and the pursuit of divine truths in a unique way. This work is an important source for those interested in studying the philosophical direction of Navoi's literature. The article studies the ability of the future generation to increase their interest in music and acquire important meaning.

Keywords: ghazal, poetry, poet, maqom, art, philosophical, ensemble, historical, cultural, work, heritage.

Kirish: O‘zbekistonda yoshlar uchun yangi imkoniyatlar so‘nggi yillarda tobora kengayib bormoqda. Mamlakatda yoshlarning ta‘limi, kasb-hunar o‘qishi, ish bilan ta‘minlanishi va ijodiy faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishi uchun bir qator yangi dasturlar va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Quyidagi sohalarda yoshlar uchun yaratilyotgan imkoniyatlar alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston yoshlariga xalqaro miqyosda bilim va tajriba .O‘zbekiston yoshlariga xalqaro miqyosda bilim va tajriba orttirish uchun turli dasturlar, almashinuv va stajirovka imkoniyatlari taklif etiladi. Yoshlarga chet elda o‘qish, ishlash va o‘z tajribasini oshirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan.

Asosiy qism: Alisher Navoiy she‘riyatida tasavvufiy, falsafiy va ma‘naviy g‘oyalarni yoritishda juda katta o‘rin egallaydi. Uning “Xanuz“ asari ham ana shu yo‘nalishlarni o‘zida aks ettirgan g‘azallardan biridir. Ushbu g‘azal, Navoiy she‘riyatining chuqur falsafiy va ruhiy mohiyatini anglashga yordam beradi. Alisher Navoiy 1441 yilning 9-fevralida Xurosonning yirik madaniy markazlaridan bo‘lgan Hirot shahrining Bog‘i Davlatxona deb ataluvchi hududida zamonasining nufuzli va

ma'rifatli xonadonida dunyoga kelgan. Uning ota-onasi o'z davrining hurmatli kishilaridan, temuriylar xonadonining yaqinlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad el orasida "Kichkina Bahodir", "Kichik baxshi" laqablari bilan nomqozongan edi. U Hirotning Chig'atoy ulusidan bo'lib, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan hisoblangan. Alisherning onasi Kobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizidir. Navoiyning yoshlik yillarida Xurosonda Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo, Movarounnahrda Shohruhning o'g'li Ulug'bek hukmronlik qilar edilar. Alisherning ota tomonidan bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lib, Boyqaro Mirzo hukmronligi davrida Qandahorda amir bo'lgan. Demak, Alisherning ota-bobolari temuriylarning eng yaqin kishilaridan bo'lib, ular hokimiyatini mustahkamlashga yordam berib kelganlar, ularning hurmat va ishonchini qozonganlar. Oradagi o'zaro yaqinlik va samimiy munosabatlar sababli temuriy hukmdorlar G'iyosiddin Kichkina oilasiga ham hurmat va ehtirom ko'rsatishgan. Alisher Navoiy bolaligidanoq zehni otkirligi, tiyrakligi, xush-fahmligi bilan o'z tengdoshlari ichida ajralib turar edi. Alisherda she'riyatga muhabbat juda 14 yoshligidan uyg'ongan. Buning sababi u tug'ilib o'sgan xonadon a'zolarining adabiyotga, she'riyatga ixlosmand kishilar bo'lganligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Ular xonadonida she'riyat muhlislari tez-tez yig'ilib turar va she'rxonlik, g'azalxonlik kechalari bo'lib turar edi va shubhasiz yosh Alisher ham bunday yig'inlarda qatnashardi. Alisherning otasi juda ko'p she'r yod bilar va adabiy yig'inlarda faol ishtirok etar edi. Bu esa uning Kichik baxshi deyishlari ham bejiz emas ekanligini ko'rsatadi. Navoiyning tog'alari Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar ham o'z davrining she'riyat sohasida elga tanilgan kishilari bo'lib, Alisherning tarbiyasida ularning roli katta bo'lgan. Navoiy "Majolis un- nafa'is" tazkirasida tog'alari haqida hurmat va ehtirom bilan so'z yuritadi. Ota-onasi yosh Alisherning kitobga havasi kuchliligini nazarda tutib, uni to'rt yoshdan sal o'tganda maktabga beradilar. Maktabda u bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga o'qiydi va tarbiyalanadi. Xondamir yozganidek Alisher "...oz vaqt ichida tengdosh va sheriklaridan ilgarilab ketadi. Nozik tab'ining soflik va sog'lomlik ovozi olamga

yoyiladi va muborak fikrining dadilligi haqida soʻzlar xalq orasida ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yuradi”. Mamlakat hukmdori Shohruh Mirzoning oʻlimi temuriy shahzodalar oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar kuchayishiga olib keldi. Xuroson va uning markazi Hirotida tartibsizliklar avj olishi natijasida xalq shaharni tashlab keta boshlaydi. Gʻiyosiddin Kichkina oilasi ham maʼlum muddatga shahardan ketishga majbur boʻladi. Karvon Iroqqa yoʻl oladi. Taft shahriga yetganda, yosh Alisher tasodifan oʻz davrining yirik tarixchisi, Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va oʻzining ziyrakligi bilan keksa olim diqqatini oʻziga jalb qiladi. 1452 yilga kelib, Xurosonda boʻlayotgan oʻzaro janjallar birmuncha pasayadi va Xuroson taxtiga Abulqosim Bobir oʻtiradi. Alisherlar oilasi ham besh yildan keyin Hirotga qaytadi. Gʻiyosiddin Kichkina Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi, u Sabzavor hokimi qilib tayinlanadi.

Alisher Navoiy Gʻazallari - Mumtoz sheʼriyatda gʻazal shoirning salohiyati koʻlamini anglatuvchi asosiy janr hisoblangan. Har bir ijodkorning maqomi uning gʻazalchilikdagi mahorat darajasi bilan belgilangan. Shuningdek, devon tuzishda ham gʻazal alohida mavqe kasb etgan. Oʻtmishda gʻazal yozmagan ijodkorning devon tartib berishi mumkin boʻlmagan. Mazkur toʻplamdan gʻazalnavis ijodkorlarimizning eng sara gʻazallari oʻrin olgan.”Xanuz” gʻazali xam shular jumlasidan. “Xanuz” gʻazali, Alisher Navoiy sheʼriyatining eng yuqori namunalaridan biridir. Gʻazalning til va shakl jihatidan oʻziga xos uslubda yozilganligi, uning badiiy yuksakligini koʻrsatadi. Navoiy, sheʼrda soʻz boyligi, tasvirlar va ifodalarning chuqurligi bilan adabiyotda yangi oʻzgarishlar yaratgan. U, sheʼriy ifodalar orqali nafaqat tasavvufiy gʻoyalarni, balki insonning ichki ruhiy holtini, uning maʼnaviy yuksalishga boʻlgan intilishlarini juda aniq va taʼsirli tarzda ifodalagan.¹

“**Xanuz**” gʻazali nomi arab tilidan olingan boʻlib, undagi “Xanuz” soʻzi “hali” yoki “hali ham” degan maʼnoni bildiradi. Bu soʻz Navoiy gʻazalining markazida joylashgan gʻoya va ruhni ifodalaydi: shoir oʻzining ruhiy izlanishlarini davom ettirayotgani, hali ham maʼnaviy yuksalish va haqiqiy sevgini izlayotganini bildiradi.

1. ¹ M.T.Rajapovna. Alisher Navoiy hayoti va ijodi fani boʻyicha oʻquv qoʻllanma. Toshkent-2009.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Rerezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir. Ayni vaqtda milliy o‘zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimizni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti

Mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san’atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog‘i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari e’tibordan chetda qolib kelmoqda shunihg uchun.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’atini keng targ‘ib etish, uning o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish hamda xalqaro nufuzini oshirish yo‘lida mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmog‘chi, o‘rganmog‘chi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmog‘chi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning

ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”.²

Xanuz

Alisher Navoiy g‘azali

Xalq bilur oshiqlik‘imni, yor bilmaydur xanuz,
Ishq o‘ti, yorab, anga xech kor kilmaydur xanuz.
Qayga borsam axtarib, yorimni topg‘ayman debom,
Bul mening shum toleimg‘a yor kelmaydur xanuz .
Ey Navoiy, ayb emas, ko‘yida o‘lsang yorning,
Ko‘yida o‘lsang aning, parvoyi kelmaydur xanuz.³

Xulosa: A.Navoiy ning “Xanuz” g‘azali, uning tasavvufiy va ma‘naviy g‘oyalarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Ushbu g‘azalda shoir, insonning haqiqiy muhabbat va ruhiy mukammallikka erishish yo‘lidagi izlanishlarini tasvirlaydi.”Xanuz”, shuningdek, Navoiy she‘riyatining adabiy va falsafiy yuksakligini, uning tasavvufiy g‘oyalari bilan uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Bu asar, nafaqat Navoiy merosi, balki butun o‘zbek adabiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ularning kelajagini yanada yorqinroq qilishga qaratilgan sa‘y-harakatlarning bir qismi sifatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shmoqda. Biz yoshlarga ko‘p imkoniyatlar yaratigan bundan unumli foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- ² <https://www.gazeta.uz>
- ³ An‘anaviy xonandalik o‘quv-uslubiy majmua. M.Ergashev- Tasviriy san‘at va Musiqa ta‘limi kafedrasi mudiri, dotsent. Andijon-2024.

1. <https://www.gazeta.uz>
2. М.Т.Ражаповна. Alisher Navoiy hayoti va ijodi fani bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2009.
3. An'anaviy xonandalik o'quv-uslubiy majmua. M.Ergashev- Tasviriy san'at va Musiqa ta'limi kafedrası mudiri, dotsent. Andijon-2024.